

INNOVATSION TA'LIM ASOSIDA BOSHLANG'ICH TA'LIMNI O'QITISH  
METODI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7810174>

Xudoykulova Mukaddas Tursunovna

*Mirzo Ulug`bek tumani 256-maktabning boshlang`ich sinf o`qituvchisi*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada boshlang`ich ta`lim tizimiga innovatsion ta`lim metodi borasida ma`lumotlar keltirilgan va tahlil qilingan.*

**Kalit so`zlar:** *“O`zini kamol toptira olmagan inson, o`zgarar kamolotini ta`minlay olmaydi”, Boshlang`ich ta`lim jarayoni, Biror – bir yangilikni kiritish.*

**МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ НАЧАЛЬНОМУ ОБРАЗОВАНИЮ НА ОСНОВЕ  
ИННОВАЦИОННОГО ОБРАЗОВАНИЯ**

**Аннотация.** *В данной статье представлены и проанализированы сведения об инновационном методе обучения в системе начального образования.*

**Ключевые слова:** *«Человек, не усовершенствовавший себя, не может обеспечить совершенство других», Процесс начального образования, Внедрение одного новшества.*

**METHOD OF TEACHING PRIMARY EDUCATION BASED ON  
INNOVATIVE EDUCATION**

**Abstract.** *This article presents and analyzes information about the innovative educational method for the primary education system.*

**Key words:** *"A person who has not perfected himself cannot ensure the perfection of others", Primary education process, Introduction of one innovation.*

**KIRISH**

Bugungi kunda boshlang`ich ta`lim jarayonida qo`llaniladigan innovatsion texnologiyalarni qo`llashdan maqsad, o`quvchilarni mustaqil, erkin, fikrlashga o`rgatish, shuningdek, zamonaviy bilim va kasb-hunar egallashga o`rgatishdan iborat. Donolar deydilarki, —O`zini kamol toptira olmagan inson, o`zgarar kamolotini ta`minlay olmaydi. Shunday ekan, o`quv jarayonini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil qilish uchun avvalombor, o`qituvchining o`zi, zamon talabini chuqur anglashi, innovatsion texnologiyalarni muakammal o`zlashtirishi va amaliyotda tatbiq etish yo`llarini bilishi lozim. Zero, zamonaviy o`qituvchi – kelajakning bunyodkori, yangi pedagogik texnologiyalarning muallifi, tatqiqotchisi, targ`ibotchisidir.

**METOD VA METODOLOGIYA**

Ilg`or pedagogik texnologiya yutuqlari asosida, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” hamda “Ta`lim to`g`risida”gi Qonun talablarini bajarish maqsadida o`quvchilarning

tafakkurlarini yuqori darajada rivojlantirishga erishish umumiy ta'lim maktablari oldida turgan eng muhim vazifalaridan biridir. Zamonaviy boshlang'ich talim jarayonida bolalarni rivojlantiruvchi xarakterga ega bo'lgan talim tizimi tadbiq qilinadi. Unda kichik maktab yoshidagi bolalar o'z yosh xususiyatlari va tafakkur hamda ruhiy taraqqiyot darajalari o'zlashtirish imkonini beradigan ta'limiy faoliyatga kirishadilar. Qaysiki, bu faoliyat o'quvchilar uchun yetakchi faoliyat bo'lib hisoblanadi. Kichik maktab yoshidagi bolalarda o'qish hamda o'rganishga qaratilgan faoliyatning shakllanishida, har bir o'quv predmeti bo'yicha nazariy bilimlarni egallash jarayonida ularning ongi va tafakkuri jadal tarzda rivojlanadi. Bu ong va tafakkur o'z xarakteriga ko'ra nazariy hamda ilmiy tushunchalarni o'zlashtirish natijasida vujudga kelgan ong va tafakkur bo'lib, bolaning jadal tarzda taraqqiyot etishini, dunyoqarashining rivojlanishini ta'minlaydi.

### TADQIQOT NATIJASI VA MUHOKAMA

Boshlang'ich ta'lim jarayoni mustaqil davlatning ta'lim tarbiya tizimida umumiy o'rta ta'limning dastlabki bosqichi sifatida namoyon bo'ladi. Ma'lumki, amaldagi boshlang'ich ta'lim predmetli o'qitishga asoslangan bo'lib, uning asosiy maqsadi bolalarda elementar tarzda o'qish, yozish, hisoblash ko'nikmalarini hosil qilishdan hamda ob'yektiv olam haqidagi tasavvurlarni oshirishdan iborat edi. Ko'rinib turibdiki, amaldagi boshlang'ich ta'lim jarayoni o'z xarakteriga ko'ra yopiq, unitar (yakka) xarakterdagi ta'limdan tashkil topgan edi. Bolalarga milliy axloq va nafosat me'yorlarini singdirish vazifasi bu tizimdan tashqarida qolgan edi. Uzoq yillar davomida boshlang'ich ta'lim goh to'liqsiz o'rta ta'limning, gohida esa o'rta ta'limning tarkibiy qismi bo'lib keldi. Mamlakatimizda Milliy kadrlar tayyorlash tizimiga asos solinishi natijasida boshlang'ich ta'lim umumiy o'rta ta'limning tarkibiy qismi sifatida e'tirof etildi. Endi boshlang'ich ta'limning mazmuni ham, bu bosqichda o'qitiladigan o'quv predmetlari ham, yopiq tizim sifatida davlat va jamiyat boshlang'ich ta'lim oldiga qo'yayotgan ijtimoiy buyurtmani bajara olmaydi. Bu sharoitda boshlang'ich ta'limning mazmuni ham, bu bosqichda o'qitiladigan o'quv predmetlarining mazmuni ham konseptual asoslarga tayangan holda yangilanishi kerak. Boshlang'ich ta'limning mazmuni. Zamonaviy boshlang'ich ta'lim uchun istiqbolli, ustuvor yo'nalishlardan biri, bu shaxsning umuminsoniy va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash asosida rivojlantirishdan iboratdir, yani, har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashga yo'naltirilgan ta'lim jarayonidir. Bugungi kunda o'zida ta'lim tarbiya elementlarini mujassamlashtirgan boshlang'ich ta'lim jarayonini tashkil etish dolzarb vazifalardan biridir. Kichik maktab yoshidagi bolalarni o'qitish va ularda milliy hamda umuminsoniy tarbiya elementlarini singdirish yo'li amaliy jihatdan tadbiq qilinishi lozim. Bu o'rinda, milliy axloq tarbiyasi, ma'naviy-ruhiy hamda milliy nafosat va jismoniy tarbiya boshlang'ich ta'lim bosqichida ustuvor ahamiyat kasb etishi lozim. Bunda o'quv material shaklida berilgan ta'limiy matnlarda o'quvchilarda turli shakllarda axloqiy-ma'naviy tarbiya va milliy nafosat me'yorlarini, diniy hamda umuminsoniy qadriyatlarni singdirish nazarda tutiladi.

Innovatsyaning asosiy tushunchalari. Yangilik: g'oya, aniq bir shaxs uchun yangilik, vosita (yangi metod). Innovatsiya:

- Yangilanish, o'zgarish;
- Biror - bir yangilikni kiritish;
- Yangilikni o'zlashtirish jarayoni.

**XULOSA**

Boshlang'ich ta'lim bilimlarning poydevori ekanligini inobatga olgan holda, bu jarayonni zamon talablariga mos holda, innovatsion texnologiyalar asosida tashkil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. dars mashg'ulotlarini yangi shakl va texnologiyalarga muvofiq tashkil qilish va o'tkazish, o'z pedagoglik faoliyatlariga innovatsion yondashuvni taqozo etadi.

**REFERENCES:**

1. "Kasb etikasi" (Bahodir Husanov, La'lixon Muhammadjonova, Himoya Haydarova, 2012).
2. „Maktabgacha pedagogika\_\_ (Sh.A.Sodiqova, 2012).
3. N.N. Azizxojayeva. Ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishda pedagogik texnologiyalar. Oliy o'quv yurti o'qituvchilari va malaka oshirish kurslari tinglovchilari uchun metodik qo'llanma. T.: 2007.
4. В.П. Беспалко. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. – М.: ИРПО, 1995.
5. J.G'. Yo'ldoshev, S.A. Usmonov. Pedagogik texnologiya asoslari. – T.: O'qituvchi, 2004.